



JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATI VA UNING TARIXDAGI O‘RNI

Abdusattorova Zuhraxon

Farg‘ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va

san‘atshunoslik fakulteti

“Musiqqa ta‘lim” yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberding vatani uchun jon fido qilib xalq-yurti uchun mardonovor kurashgani hamda qaxramonliklari haqida so‘z boradi. Jaloliddin Manguberdi ko‘plab davlatlar bosqinchilariga qarshi kurashib ularni mag‘lub qilgani, bir qator qo‘shni davlatlarni ham mo‘g‘ullarga qarshi birlashtira olganligi hamda o‘limiga qadar katta hududlarni egallaganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshoh, Parvon, Chingizxon, Ozarbayjon, Hindiston, Mo‘g‘ullar bosqinchiligi, Jaloliddin Manguberdi kurashi.

Аннотация: Эта статья посвящена жертве, которую Джалолиддин Мангуберди принес ради своей родины. Представлена информация о его мужественной борьбе и героизме за свой народ и родину. Описывается, что Джалолиддин Мангуберди сражался и одержал победу над захватчиками из многих стран, смог объединить ряд соседних государств против монголов и оккупировал обширные территории перед своей смертью.

Ключевые слова: Хорезмшах, Парван, Чингисхан, Азербайджан, Индия, Монгольское нашествие, борьба Джалалуддина Мангуберди.

Tarixda insonning nomi mardlik, vatanparvarlik va yengilmas iroda ramzi sifatida muhirlangan shaxslar haqida ma‘lumotlar yoritilgan. Biroq, Xorazmshohlar davlatining so‘nggi tarixdan o‘chmas hukumdori, Mo‘g‘ullar bosqinchilariga qarshi mardonovor kurashgan, Vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, dushmanini hayratga soladigan darajada qaxramon bo‘lib yetishgan shaxslar sanoqli.

Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq va Kavkaz hududlarida tinimsiz kurash olib borgan, 17 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi jang qilib, ularning 14 tasida g‘olib bo‘lgan. Jaloliddin Manguberding otasi Xorazimshoh Alovuddin Muhammad va onasi Oychechakning to‘ng‘ich o‘g‘li hamda Anushtengiyalar sulolasidan bo‘lgan. Otasi o‘lim oldida uni taxt vorisi qilib tayinlagan. Xorazimshohning zamondoshi an-Nasaviy Jaloliddin Manguberdi bug‘doyran, o‘rta bo‘yli, turkiy qiyofali va turkiy tilda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiy tillarda ham so‘zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, janglardagi faoliyatining o‘zi kifoya. U sherlar orasida eng zo‘r sher edi, qo‘rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botiri edi. U yuvosh, muloyim odam.

edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi. U haqgo‘ylikni, adolatni ulug‘lardi, ammo u yashagan davridagi g‘alayonlar, alg‘ov-dalg‘ovlar fe‘l-atvorini o‘zgartirdi. U qo‘l ostidagi odamlarning og‘ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, amma u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi.⁶⁴

Jaloliddin Manguberdi Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan, Xorazmshohlar qo‘shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o‘z joni-mulkini asrash yo‘liga tushgan, sulton mamlakatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan bir paytda Jaloliddin Manguberdi o‘z vatan va xalq erki uchun kurash olib began. Jaloliddin sarkardalik qobiliyatini juda erta namoyon qilgan. Nasaviyning yozishicha, Kushluxonni mag‘lub etgan Jo‘chixon boshliq mo‘g‘ul qo‘shini bilan sulton Alouddin lashkarlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ilk jangda Xorazm qo‘shini omon qoldi va dushmandan “qasos o‘chi olindi”⁶⁵ bu jangda o‘ng qanotga Jaloliddin qo‘mondonlik qilgan. Jang 1216-yilda bo‘lib o‘tgan e‘tiborga olinsa, Jaloliddin 17-18 yoshidayoq o‘zini iste‘dodli va jasoratli sarkarda sifatida namoyon etgani ma‘lum bo‘ladi.⁶⁶

Jaloliddin Manguberding janglardagi eng yaxshi usularidan biri, dushmanning ko‘p sonli guruxlarini o‘zining kam sonli askarlari bilan mag‘lub qilish bo‘lgan. Jaloliddin Manguberdi Niso yaqinada o‘zining 300 nafar askari bilan Mo‘g‘ullarning 700 kishilik pistirmadagi guruhini tor-mor etagan. U 1221-yilning boshlarida Urganchdagi qaltis vaziyat tufayli shahani tashlab, 300 kishi bilan o‘n olti kun ichida Xuroson yerlaridagi Niso qo‘rg‘oni atrofida pistirmadagi guruxlarni mag‘lub etgan. Ushbu g‘alaba Mo‘g‘ullarning afsonaviy qudrati yengilmasligi haqidagi mish-mishlarga chek qo‘ygan. Jaloliddin obro‘si ko‘tarilib, xalqda g‘alabaga ishonch mustahkamlangan.

1221- yilda bo‘lib o‘tgan parvon jangi Jaloliddin Manguberding Mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi qo‘rqmas kurashining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, Movarounnahr va Xuroson xalqlari uchun juda katta harbiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Janggacha Chingizxon qo‘shinlari O‘rta Osiyoda deyarli qarshilikka uchramay, shaharlarni ketma-ket egallab kelayotgan edi. Parvon jangidan so‘ng esa Jaloliddin o‘zining 60-70 minglik turli qabilalardan tashkil topgan qo‘shini bilan Shiki-Xutuxu no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinini 30-45 ming kishi bilan tor-mor etdi. Bu g‘alaba mo‘g‘ullar ham mag‘lub bo‘lishi mumkinligini amalda ko‘rsatdi. Garchi bu jang urushning Mo‘g‘ulla ustunligini to‘liq o‘zgartirmagan bo‘lsada, bosqinchilarning vahshiyona yurishiga kuchli zarba bergan va Jaloliddin Manguberding mohir sarkarda sifatidagi obro‘sini oshiran. Xulosa qilib aytganda, Parvon jangi Movarounnahr va Xuroson xalqlari uchun milliy ozodlik kurashining eng yorqin sahifalaridan biri bo‘lib, xalqning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini qaytargan.


Jaloliddin Manguberdi Chingixonga qarshi ittifoq tuzish maqsadida Hindistonda muqim o‘z o‘rniga o‘rnashish, ittifoqchilar toppish mushkul ekanini anglab, 1224-yili Iroqqa

⁶⁴ Shaxobiddin Muammad an-Nassaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi” T. O‘zbekistan . 2006.

⁶⁵ Shaxobiddin Muammad an-Nassaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi” T. O‘zbekistan . 2006.

⁶⁶ Juvayniy. “Tarixi jahonkusho” Rashidudinning “Jome at-tavorix”





yo‘l olagan. U o‘z qo‘shini bilan dastlab Kirmon, Sheroz kegin esa Isfahonga borib, mahalliy hukmdorlar bilan kelishib, mustaqil kuchga ega bo‘lagan. Shunday qilib Kirmon, Fors, Isfahon hukmdorlari, o‘zaro nizolarni chetga surib, umumiy xavfga qarshi Xorazmshohga va Mo‘g‘ullarga qarshi birgalikda kurashishga tayyor ekanligini bildirishgan. Jaloliddin u yerlarda birlashgan davlat tuzishga, qudratli davlatni tiklashga kirishgan. Tobariston, Domashq, Misr hukmdorlari bilan yaxshi munosabat o‘rnatgan. Jaloliddin Manguberdi Bog‘dod xalifasi Nosirga maktub yo‘llagan va u Xalifani umumdushman mo‘g‘ullarga qarshi kurashga undagan. Ammo o‘sha davrdagi Bag‘dod xalifasi avvalgidek qudratga ega emas edi. Xalifa Islom olamiga ofat yog‘dirayotgan mo‘g‘ullardan emas, balki Xorazmshohning kuchayib borishidan xavfsiragan. Bag‘dod xalifasi tobora kuchayib borayotgan Sulton Jaloliddin Manguberdi qudratini zaiflashtirish, uning ittifoqchilari o‘rtasiga raxna solish siyosatini tutgan. Xalifa Nosir bu yo‘lda qurolli kurashdan ham qaytmagan. Uning Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shini Basra yaqinidagi jangda tor-mor etilgan.

Bu g‘alabadan so‘ng Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjon tomon yurish qilgan. Ozarbayjon hukmdori maishatga berilib, davlat ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan, davlatni amalda uning xotini Malika Xotun boshqargan, bundan tashgari, hukmdor aholini Gurjiston go‘shinining talonchilik yurishlaridan himoya qilolmayotganligi uchun, 1225-yil may oyida Jaloliddin Manguberdi Marog‘a shahrini jangsiz qo‘lga kiritgan. Tabriz ham Xorazmshohga taslim bo‘lgan. Ozarbayjon aholisi Xorazmshoh qiyofasida o‘zini gurjilar zo‘ravonligidan ozod etuvchi xalokori deb bilgan. Gurjilar ko‘pdan beri Ozarbayjonni talar va ularga qarshi turadigan kuch topilmagan. Ozarbayjon xalqi Jaloliddin siymosida qudratli kuchga ega bo‘lgan edi. Jaloliddin Xorazmshoh Ozarbayjon harbiy yurishlar uchun qulay yerda joylashgani uchun bu o‘lkani o‘z davlatining markazi sifatida tanlaygan. Tabriz shahrini yangi barpo etgan davlatining poytaxtiga aylantirib, 1226-yilda Ozarbayjon, Shirvon va Gurjiston yerlarini Xorazmshoh o‘z qo‘liga olgan. 1227-yil sentyabrda Isfahon yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarning Taynol no‘yon boshliq qo‘shinini yengan. Taynol no‘yon Jaloliddin Manguberdining jangdagi mardligiga qoyil qolib: “Zamonasining haqiqiy bahodiri, o‘z tengqurlarining sarvari ekan”, degan edi.⁶⁷

Jaloliddin Manguberdining o‘z borayotgan mavqeyi Bag‘dod xalifasini, Misr, Damashq va Jazira hukmdorini tashvishga sola boshlaygan. Ichki fitnalar va xiyonatlar boshlanib, Ko‘niya sultoni Alouddin Qayqubod muxolif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Jaloliddinning ukasi G‘iyosiddin Pirshoh birinchi bo‘lib xiyonat yo‘liga o‘tgan. U o‘z lashkarlari bilan akasi qarorgohini tark etgan va G‘iyosiddin akasiga hasadi qo‘zg‘ab, o‘zi mustaqil davlat barpo etish va Jaloliddin kabi shuhrat qozonishni istagan lekin u Kirmon hokimi tomonidan qo‘lga olinib, qatl etilgan. Mo‘g‘ullar ushbu voqeadan so‘ng Jaloliddin davlati ular o‘ylagandek kuchli emasligini anglab, u bilan sulh tuzish fikridan qaytishgan. Ozarbayjon va Gurjiston sari talonchilik yurishlarini boshlab, Jaloliddinning bosh vaziri Sharofulmulk sultonga fitna uyushtira boshlagan. Uning Jazira va

⁶⁷ Akbar Zamonov, Nargiza Ismatova, Bobir Aminov, Zebo Jabborova, Shokirjon Qdratov “O‘zbekistom tarixi” Birinchi nashr Toshkent-2023

Ko'niya hukmdorlariga Jaloliddindan hokimiyatni tortib olishda madad so'rab yozgan maktubi Jaloliddinning qo'liga tushgach, u hibsga olinib, qatl etilgan. 1230-yil avgustda Ko'niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shini Jaloliddin Manguberdi kuchlari Arzinjon yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan. Jaloliddin Manguberdingin kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan 1231-yilda Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddin Manguberдини ta'qib etishadi. Mo'g'ullar uning qarorgohiga uyushtirgan tungi hujum natijasida oz sonli qo'shinini tor-mor qilishadi, Jaloliddin Manguberdingin o'zi esa ta'qibdan, Kurdiston tog'lariga chiqib ketgach u yerda qaroqchi kurdlar qo'liga asir tushib, fojiali halok bo'ladi. Atiga o'ttiz uch yil umr ko'rgan, ammo nomi ellarda mashhur bo'lgan, Chingizxonni lol qoldirgan, o'z yurtini beaded sevgan so'nggi xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdi yorug' dunyodan shu tariqa ko'z yumgan.

Uning nomi asrlar davomida avlodlar uchun jasorat va mardlik, vatanparvarlik ramzi bo'lib kelmoqda. Jaloliddin Manguberdingin ozodlik va mustaqillik uchun kurashi tarixi asrlar davomida nafaqat o'z yashagan yurti balki sharq xalqlari tillarida ham doston bo'ldi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilgani hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilgani buning dalilidir. 1941-yili ikkinchi jahon urushi davrida Jaloliddin Manguberdingin ozodlik yo'lidagi kurashi madh etila boshlandi. Mustaqillik yillarida, 1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatildi. 2000-yili "Jaloliddin Manguberdi" ordenining ta'sis etilishi esa mohir sarkarda faoliyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. 2022-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi ochildi.

Prezidentimiz buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdingin hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, uni xalq, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish zarurligini ta'kidladi. Jaloliddin Manguberdi har bir jangda mardlik, qahramonlik borasida o'rnak ko'rsatadigan o'zining oz sonli lashkarlari bilan, dushmanining ko'p sonli qo'shini ustidan g'alaba qozongan chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o'zbek xalqiga xos bo'lgan vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlansak, g'ururlansak, arziydi. Oradan yillar, asrlar o'tsa ham sulton Jaloliddin Manguberdi hamisha yurtimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylagani, iymon-e'tiqod bilan xizmat qilgani tarixdan o'chmas timsol bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxobiddin Muammad an-Nassaviy "Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi"
2. Juvayniy. "Tarixi jahonkusho"
3. Rashidudinning "Jome at-tavorix"

4.Akbar Zamonov, Nargiza Ismatova, Bobir Aminov, Zebo Jabborova, Shokirjon Qdratov “O‘zbekistom tarixi” Birinchi nashr Toshkent-2023.

